

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

FAYZIEVA FAROGAT BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEKISTONDA AMALIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

22.00.01 – Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi. Sotsiologik tadqiqot usullari

**SOTSILOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK: 316.34:301.1:314.335.24(575.1)

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по социологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences**

Fayzieva Farogat Baxtiyorovna

О'zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish
mexanizmlari3

Файзиева Фарогат Бахтиёровна

Механизмы повышения эффективности прикладных социологических
исследований в Узбекистане.23

Fayzieva Farogat Baxtiyorovna

Mechanisms for improving the effectiveness of applied sociological research in
Uzbekistan...45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

FAYZIEVA FAROGAT BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEKISTONDA AMALIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

22.00.01 – Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi. Sotsiologik tadqiqot usullari

**SOTSILOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Sots39 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.dba.uz/uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aliqoriyev Nuriddin Safoqoriyevich
iqtisod fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aliyev Bekdavlat Begaliyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Seitov Azamat Pulatovich
sotsiologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/30.12.2019.S.23.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «9» sentyabr kuni soat 11.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.: (99871) 232-60-80; faks: (99871) 232-60-66; e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (25/08 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.: (99871) 232-61-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «26» 08 kuni tarqatildi
(2023-yil «26» 08 dagi № 24/08 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.B.Bekmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

T.B.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi muammolar sabablarini jamoatchilik fikrini o'rganish orqali aniqlash hamda mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilashda optimal taklif va tavsiyalarni beruvchi sotsiologik tadqiqotlar markazlarida har yili minglab sotsiologik tadqiqotlar o'tkaziladi hamda tahlil qilinadi. Aynan shunday tadqiqotlar kelgusida ijobiy natijalarga erishish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun davlat siyosatining turli faoliyatidagi strategik siyosatini amalga oshirish uchun asos bo'lmoqda. Amaliy sotsiologik tadqiqotlarning innovatsion, ilmiy va amaliy usullari davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlariga umumiy hamda maxsus tendensiyalar ko'rinishida kirib kelishi, jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan murakkab ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yechimini topishda amaliy sotsiologik tadqiqotlar usullarini mazmunan yangi bosqichga olib chiqish hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish yo'nalishida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, sotsiologik tadqiqotlarning zamonaviy metodlarini ommalashtirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan jamoatchilik fikrini o'rganishda sifatiy tadqiqot metodlarini qo'llash, turli sohalarga qaratilgan muammolarni tezkor tahlil qilishda innovatsion axborot texnologiyalarini qo'llash amaliyoti va sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonini mukammallashtirish orqali sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish zaruratini ilgari surilmoqda.

Yangi O'zbekiston jamiyatining turli sohalarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi islohotlarga aholining o'z munosabatini bildirishida sotsiologik tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda. «Shunday bir sharoitda muayyan sohadagi vaziyatni sifat jihatidan o'zgartirish hamda ilg'or xorijiy va mahalliy nazariy-metodologik vositalardan foydalanish asosida uni rivojlantirish vazifalarini davom ettirish xususida sotsiologik so'rovlar o'tkazishning sifat jihatidan yangi hamda zamonaviy tadqiqot amaliyotini shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda»¹. Shu boisdan, amaliy sotsiologik tadqiqotlar usullari va metodologiyasini davr nuqtayi nazaridan yangilash, xalqaro va mahalliy ilg'or tajribalar asosida jamoatchilik fikrini o'rganish, buyurtmalarni sifatli bajarish, muammoning asl mohiyatini tezkor aniqlash hamda uning yechimini topishga doir aniq taklif va tavsiyalar berish uchun amaliy sotsiologik tadqiqotlarning tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-sonli «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5667-сонли Фармони. URL.:<https://lex.uz/docs/4211807>

9-yanvardagi PF-5618-sonli «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida», 2019-yil 22-fevraldagi PF-5667-sonli «Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ijrosini ta’minlashda va ularda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Jamiyatni isloh etish va texnologiyalar rivojlanishining tarixiy va diniy qadriyatlar, milliy g‘oya, estetik-badiiy tarbiya, san’at, moddiy va nomoddiy madaniy meros, milliy davlatchiligi tarixini tadqiq etish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mavzusi bo‘yicha ilmiy o‘rganilganlik darajasi shuni ko‘rsatadiki, ularda ko‘proq nazariy jihatlariga e’tibor qaratilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jamoatchilik fikrining jamiyatdagi ijtimoiy muhitga, turli boshqaruv usullariga, din ma’rifati va shaxs maqomiga ta’sir o‘tkazishi turli fan namoyondalari tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Markaziy Osiyoda jamoatchilik fikrining rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda Abu Mansur al-Moturidiyning ilmiy qarashlari katta ahamiyatga ega. Moturidiya maktabi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiyning «Sharhul fiqhul akbar»² asarida jamiyat, jamoa, jamoatchilik fikri, ijtimoiy jarayonlar, xususan, shaxsning maqomi haqidagi ta’limot sifatida yondashish batafsil bayon qilingan. Al-Moturidiy asarlaridagi jamoatchilik fikrini o‘rganishning turli usullarini hozirgi zamonaviy sotsiologiyada amaliy sotsiologik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan Movarounnahrda dastlabki nazariy asos sifatida olish mumkin. Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni maxsus usullar orqali o‘rganishni asoslovchi nuqtayi nazarni Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri»³ asari, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»⁴ asarlari dunyo xalqlari tarixida o‘tgan besh ming yillik voqealari tahlili va sinteziga bag‘ishlangan mumtoz etnosotsiologik asar deb hisoblash mumkin. Shuningdek, Amir Temurning «Temur tuzuklari»⁵, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub»⁶ asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda o‘zbek sotsiologiyasi maktabi sobiq SSSR davrida shakllangan bo‘lib, professor R.T.Abdushukurov⁷, Akademik A.Q.Valiyev⁸ ilmiy maktablarida o‘z aksini topgan. Ular tomonidan monografiyalar yaratilgan bo‘lib,

² Ибрагим Т.К., Сагадеев А.В. ал-Матуриди // Ислам: энциклопедический словарь/ Отв. ред. Прозоров С.М. – М.: Наука, ГРВЛ, 1991. – С. 161.

³ Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 233.

⁴ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 5-жилд. – Т.: Фан. 1976. – Б. 11.

⁵ Amir Temur. Temur tuzuklari. – Т.: O‘zbekiston, 2016. – В. 146.

⁶ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 3.

⁷ Абдушукуров Т.Р. Социальные последствия современной научно-технической революции. – Т.: Узбекистан, 1976. – С. 391.

⁸ Валиев А.К. Советская национальная интеллигенция и её социальная роль. – Т.: Фан, 1969. – С. 227.

ushbu monografiyalarda mamlakatning ijtimoiy masalalaridagi dolzarb muammolar aks etgan va doimiy ravishda O'zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnalida amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari nashr qilib borilgan. Bugungi kunda M.Bekmurodov, A.Kaxxarov, A.Umarov, A.Xolbekov, R.A.Ubaydullayeva, B.Ota-Mirzayev, N.Aliqoriyev, M.Ganiyeva, T.Matibayev, Sh.Sodiqova, A.Seitov, O.Abduazimov, R.T.Ubaydullayeva, N.Raximovalar⁹ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jamoatchilik fikrini o'rganishda amaliy sotsiologik tadqiqot muammolari, ulardagi metod va metodologiya hamda sotsiologik tadqiqotlarning samaradorligini oshirish bilan bog'liq muhim masalalar, jamoatchilik fikrini o'rganish markazlarining faoliyatiga doir muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Xorij olimlarning, xususan, O.Kont, R.Aron, M.Weber, E.Dyurkgeym, R.Dal, G.Zimmel, S.Lipset, R.Merton, T.Parsons, P.Sorokin, G.Spenser, J.Terner, S.Xantington, J.Beniger, V.Davison, G.Fayrbolar¹⁰larning ishlarida sotsiologik tadqiqotlar orqali aholining davlatga bo'lgan ishonchini shakllantirishda amaliy sotsiologik tadqiqotlar mohiyati, jamoatchilik fikrini o'rganishagi ilmiy metodlarning ahamiyatini ochib berilganligini ta'kidlash mumkin. MDH davlatlari olimlari, xususan, V.Dobrenkov, B.Grushin, T.Zaslavskaya, A.Zdravomislov, I.Kon,

⁹ Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – B. 436; Kaxxarov A. Социологические проблемы экосоциального развития. Региональный аспект. Дисс. д. с. н. 22.00.04. – М., 1996. – С. 285; Umarov A.O. Ижтимоий-маданий тараккиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Соц. фан. докт. илмий дар-ни олиш учун тайё. дисс. – Т.: ЎзМУ, 2005; Холбеков.А.Ж. Шарқ ва ғарб мутафаккирларининг социологик таълимоти. – Т.: Университет, 1996. – Б. 25; Ubaydullaeva P.A., Ota-Mirzaev B. Социологик тадқиқотлар амалиёти (ўқув услубий кўлланма). – Т.: Ижтимоий фикр, 2001. – Б. 46; Алиқориев Н.С. Общая социология. – Т.: НУУз, 1999. – С. 35-40; Ганиева М.Х. Ўзбекистон Республикаси. Жамоатчилик фикрини ўрганиш «Ижтимоий фикр» Маркази. Оила маънавияти. Ўқув кўлланма. – Т.: Ижтимоий Фикр, 2007. 1-боб. – Б. 7; Матибаев Т.Б. Давлат ва фуқаролик жамияти ҳамкорлигининг ривожланишида социологиянинг туганган ўрни / «Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар» мавзусидаги конференция материаллари. – Т.: УзМУ, 2020. – № 17. – Б. 9-13; Содикова Ш.М. Ўзгаришлар социологияси. Ўқув кўлланма. – Т.: Академија, 2019; Seitov A.P. Социологическое видение восточной цивилизации: генезис и дальнейшие перспективы. Монография. – Т.: Издательство Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, 2019. – С. 183; Абдуазимов О.У. Роль средств массовой информации в формировании общественного мнения (на примере Республики Узбекистан) // Вестник Поволжского института управления, 2015. – № 4 (49). – С. 45-50; Ubaydullaeva P.T. Саморефлексия как субъектно-практическая методология социологии. Соц. фан. докт. илмий дар-ни олиш учун тайё. дисс. – Т.: ДБА, 2020; Рахимова Н.Х. Жамоатчилик фикри социологияси ва жамиятни рақамлаштириш, Жамиятни рақамли жадаллаштириш: социологик нуқтаи назар. – Т.: Наврўз, 2020. – Б. 171.

¹⁰ Конт О. Дух позитивной философии: Слово о положительном мышлении. – М.: Либроком, 2011. – С. 80; Арон Р. Этапы развития социологической мысли. – М.: Прогресс, 1992. – С. 608; Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. – С. 345; Дюркгейм Э. Социология. её предмет, метод, предназначение. – М.: Канон, 1995. – С. 352; Dahl Robert A. «The Concept of Power» Systems Research and Behavioral Science, 2 (3), 2001. – 215 p.; Зиммель Г. Избранное. Том 2. Созерцание жизни. – М.: Юрист, 1996. – С. 607; Липсет С. М. Некоторые социальные предпосылки демократии: Экономическое развитие и политическая легитимность. // Концепция модернизации в зарубежной социально-политической теории 1950-1960 гг. – М.: Прогресс, 2012. – С. 119; Мертон Р. К. Социальная теория и социальная структура // Социологические исследования. – М., 1992. – № 2/4. – С. 118-124; Сорокин П. А. Социальная и культурная динамика: Исслед. изм. в больших системах искусства, истины, этики, права и обществ. отношений. – Санкт-Петербург: Гуманитар, 2000. – С. 1054; Спенсер Г. Личность и государство. – М.: Политика, 2007. – С. 208; Тернер Ж. Структура социологической теории. – М.: Прогресс, 1985. – С. 472; Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис, 1994. – № 1. – С. 33-48; Парсонс Т. Общетеоретические проблемы социологии // Социология сегодня: Проблемы и перспективы. – М.: Прогресс, 1965. – С. 223; Beniger J., The Control Revolution: Technological and Economic Origins of the Information Society. Harvard University Press, 1989/2009; Davison W.P. Public Opinion Quarterly. Volume 22. Issue 2. SUMMER, 1958. – P. 91-106; Firebaugh G. Seven Rules for Social Research, Princeton University Press, 2018.

S.Kravchenko, G.Osipov, R.Rivkina, G.Tatarova, V.Shubkin, V.A.Yadov¹¹larning ishlarida amaliy sotsiologik tadqiqotlarning tashkiliy, metodologik tushunchalaridan foydalanish asosida muammoni yana-da kengroq tahlil qilishga imkon bermoqda. Ularning ishlarida amaliy sotsiologik tadqiqotlar borasida metodologik ahamiyatga ega innovatsion usullar, sotsiologik tadqiqotlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, respondentlarni tanlab olish va turli usullarga doir ko'plab ilmiy yondashuvlar kuzatilgan, shuningdek, tadqiqotning obyektiv va subyektiv taraflari tahlil qilinib, ular turkumlangan hamda ta'riflangan.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda jamoatchilik fikrini o'rganishda amaliy sotsiologik tadqiqot muammolari, ulardagi metod va metodologiya bilan bog'liq masalalar o'rganilgan bo'lsada, amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmlari yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa amaliy sotsiologik tadqiqotlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning yaqin hamda o'rta istiqboldagi holati, o'zgarish tendensiyalarini tadqiq etish orqali zamonaviy yondashuv zaruratini yuzaga keltiradi.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2018-2020-yillarga mo'ljallangan PZ-2017093020 «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish hamda kompleks dasturini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga tayanib amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

amaliy sotsiologik tadqiqotlar haqida nazariyalar va metodologiyalarining mazmun-mohiyatini o'rganish;

sotsiologik tadqiqotlar rivojlanishining tarixiy bosqichlari va turli yondashuvlarning o'ziga xos jihatlarni tadqiq etish;

amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirishdagi muammolarni aniqlash;

¹¹ Добренъков В.И. Фундаментальная социология. – М.: ИНФРА-М, 2005. – С. 1040; Грушин Б.А. Мнения о мире и мир мнений. – М.: Праксис, 2011. – С. 546; Заславская Т.И. Комплексная программа исследования перспектив социально-демографического развития деревни. СО АН, ИЭиОПП, д.с.п., 1974; Здравомыслов А.Г. Поле социологии в современном мире. Логос: Монография. – М., 2020. – С. 508; Кон И.С. Междисциплинарные исследования. Социология. Психология. Сексология. Антропология. – М.: Феникс, 2006. – С. 608; Кравченко С.А. Мосты, соединяющие всевозможные расколы социологии ради более равного мира. – М.: Социс, 2015. – № 2. – С. 29-38; Осипов Г.В. Оценка общественной эффективности фундаментальных научных исследований. Социально-гуманитарные знания, 2014. – № 5. – С. 54-62; Рывкина Р.В. Социология экономической жизни. – М.: Наука, 1991. – С. 100; Татарова Г.Г. Когерентность интеграционных процессов как условие повышения качества эмпирических исследований в России. Социологические исследования, 2014. – № 7. – С. 72-84; Шубкин В.Н. Социология и общество: Научное познание и этика науки. Монография. – М.: ЦСПиМ, 2010. – С. 424; Ядов В.А. Социологическое исследование: методология программа методы. – М.: Наука, 1987. – С. 16.

O‘zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish borasida mavjud muammolarni ko‘rsatib berish;

sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini harakatga keltiruvchi omillarni aniqlash va O‘zbekistonning mental xususiyatlariga xos ravishda namoyon bo‘luvchi jihatlarini belgilab berish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekistonda olib borilayotgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishga oid faoliyatning samaradorligini oshirish mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy sinergetik tahlil, hujjatlarni tahlil qilish, intervyu, ekspert baholash metodi, proksi ekspert usuli va narrativ intervyu usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

amaliy sotsiologik tadqiqotlarning fundamental asoslarini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan samorefleksiya, o‘zini-o‘zi tashkillashtirish singari sinergetik usullarning yo‘lga qo‘yilishi O‘zbekiston amaliy sotsiologik maktabi tajribalarini amaliyotga samarali joriy qilish omili ekanligi asoslangan;

amaliy sotsiologik tadqiqotlar shakllanishi, xususan, uning tarmoqlanishi (differensiatsiyalashi), moliyalashtirilishi, ijtimoiy mas’uliyat institutlarining takomillashtirilishi sharoitida shaxsning sotsiologik pozitsiyalari evolyutsiyasi ochib berilgan;

sotsial hodisalarni ildizini ochib berishda bir-birini to‘ldiruvchi umumiy, maxsus sotsiologik nazariyalar asosida amaliy sotsiologik tadqiqotlarning olib borilishini yo‘lga qo‘yilishi aholining davlat boshqaruvi organlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga ta’sir qiluvchi omil sifatida asoslantirilgan;

sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishning ilmiy asoslangan (pilotaj, intervyu, anketa so‘rovi va h.k.) ketma-ketligini «hozir va shu yerda» tamoyili asosida amalga oshirishda milliy raqamli tizimni yo‘lga qo‘yilishi zarurati dalillangan;

milliy qonunchilikning rivojlanishining bugungi bosqichida «jamoatchilik fikri» tushunchasining bir xir talqin qilinishi maqsadida qonunchilikka «jamoatchilik fikri» tushunchasini kiritish, shuningdek, amaliy sotsiologik tadqiqotlarni olib borish sohasini kompleks tarzda huquqiy tartibga solishga oid O‘zbekiston Respublikasining «Sotsiologik tadqiqotlar to‘g‘risida»gi qonunini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

amaliy sotsiologik tadqiqot samaradorligini oshirishda markazlar faoliyatini yaxlit mexanizmga ega bir tizimga keltirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan;

amaliy sotsiologik tadqiqotlar jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni aniqlashda faoliyatni muvofiqlashtiruvchi tashkilot tomonidan monitoring va xizmat tekshiruvlar o‘tkazish tartibi yaratilgan;

qonunchilikka qonun ijodkorligida jamoatchilik fikrini faqat ilmiy metodlardan foydalangan holda o'rganish lozimligi haqidagi norma va «jamoatchilik fikri» tushunchasi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

amaliy sotsiologik tadqiqotlarni olib borish sohasini kompleks tarzda huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining «Sotsiologik tadqiqotlar to'g'risida»gi qonuni loyihasining konsepsiyasiga takliflar berilgan;

O'zbekiston jamiyatining mental xususiyatlari, madaniyati, dini, qadriyat va an'analariga mos ravishda ishlab chiqish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy hamda ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ekspertlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga asoslangan xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda amaliy sotsiologik tadqiqotlarni takomillashtirish, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv sohalarida amaliy sotsiologik tadqiqotlar asosida strategik qarorlar qabul qilishda, amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarining aks etish holati jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiqotlar orqali o'rganish bilan izohlanadi. Shuningdek, O'zbekistonda sotsiologik ta'lim jarayonini yangi innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'tishda sotsiologik tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi davlat hamda nodavlat tashkilotlari uchun tavsiyalar ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishining g'oya va materiallaridan «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, «Oila va mahalla» ilmiy tadqiqot instituti tomonidan o'tkaziladigan sotsiologik tadqiqotlarda, Oliy o'quv yurtlarida «Sotsiologiya», «Empirik sotsiologik tadqiqotlar metodikasi va texnikasi», «Sotsiologik tadqiqot texnologiyalari», «Sotsial boshqaruv», «Amaliy sotsiologik tadqiqotlar», «Sotsiologik tadqiqotlarda informatsion texnologiyalar» fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash hamda amaliy sotsiologik tadqiqotlarga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmlari bo'yicha tadqiqot natijalaridan:

amaliy sotsiologik tadqiqotlarning fundamental asoslarini yana-da takomillashtirishga yo'naltirilgan samorefleksiya, o'zini-o'zi tashkillashtirish singari sinergetik usullarning yo'lga qo'yilishi O'zbekiston amaliy sotsiologik maktabi tajribalarini amaliyotga samarali joriy qilish omili ekanligi asoslab berilganligiga oid xulosalardan «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan 2021-yilda «Oila va jamiyat: ma'naviy-axloqiy dunyo» nomli sotsiologik tadqiqot amaliyotida ilk bor eksperiment tarzda

foydalanilgan («Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazining 2021-yil 4-avgustdagi 01-16/221-2-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishda ma'lumotlar to'plash jarayonining xolisligi va tadqiqot natijalarining samaradorligida sotsiologning kasbiy mahoratining axloqiy takomillashuviga doir etik qoidalarni ilmiy-nazariy, amaliy jihatlarining takomillashuvida amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan;

amaliy sotsiologik tadqiqotlar shakllanishi, xususan, uning tarmoqlanishi (differentsiyalashi), moliyalashtirilishi, ijtimoiy mas'uliyat institutlarining takomillashtirilishi sharoitida shaxsning sotsiologik pozitsiyalari evolyutsiyasi ochib berilganligiga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2020-2021-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021-yil 23-avgustdagi 03/08-1003-sonli ma'lumotnomasi) Jumladan, O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi II. O'zbekistondagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatni keng targ'ib qilish, «Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari» g'oyasini ro'yobga chiqarishga qaratilgan umummilliy harakatni yuzaga keltirish chora-tadbirlari yo'nalishi 10. Bandi Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi holati, turli sohalarda olib borilayotgan islohotlarning aholi turmush tarziga ta'sirini o'rganish maqsadida «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» mavzusida aholi orasida sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish va natijalar asosida maqsadli-manzilli amaliy ishlarini tashkil etishda o'z natijasini bergan;

sotsial hodisalarni ildizini ochib berishda bir-birini to'ldiruvchi umumiy, maxsus sotsiologik nazariyalar asosida amaliy sotsiologik tadqiqotlarning olib borilishini yo'lga qo'yilishi aholining davlat boshqaruvi organlariga bo'lgan ishonchini oshirishga ta'sir qiluvchi omil sifatida asoslantirilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tomonidan 2018-yildagi O'RQ-474-sonli Qonunning «Jamoatchilik fikrini o'rganish» deb nomlangan 13-moddasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish taklifi ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutning 2021-yil 24-dekabrda 02-08-1049-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu takliflarni inobatga olgan holda, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 44-bandida jamoatchilik nazoratining samarali va ta'sirchan shakllarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish maqsadida «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qayta ko'rib chiqish vazifasi belgilangan;

sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning ilmiy asoslangan (pilotaj, intervyu, anketa so'rovi va h.k.) ketma-ketligini «hozir va shu yerda» tamoyili asosida amalga oshirishda milliy raqamli tizimni yo'lga qo'yilishi zarurati asoslantirilganligiga oid takliflardan «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

22-fevraldagi «Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5667-sonli Farmonining 2-bandi «G» qismida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan («Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazining 2021-yil 4-avgustdagi 01-16/222-2-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sotsiologik tadqiqotlarning sifat jihatidan yangi va zamonaviy tadqiqot amaliyotini shakllantirishga erishilgan hamda amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirishda amaliy ahamiyatini ochib berish imkonini bergan;

milliy qonunchilikning rivojlanishining bugungi bosqichida «jamoatchilik fikri» tushunchasining bir xir talqin qilinishi maqsadida qonunchilikka «jamoatchilik fikri» tushunchasini kiritish, shuningdek, amaliy sotsiologik tadqiqotlarni olib borish sohasini kompleks tarzda huquqiy tartibga solishga oid O'zbekiston Respublikasining «Sotsiologik tadqiqotlar to'g'risida»gi qonunini ishlab chiqish hamda qabul qilish maqsadga muvofiqligi asoslantirilganligi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tomonidan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishda davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, sohadagi tizimli muammolarni kompleks tarzda huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiqligi to'g'risida takliflar ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutning 2021-yil 24-dekabrda 02-08-1049-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni sifat jihatidan ijobiy natijalarga erishilishi va qonun ijodkorligida jamoatchilik fikrini o'rganish amaliyotining ilmiy asoslarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, 2 tasi xorijiy jurnallarda (Hindiston, AQSH), 9 ta tezis, shundan 3 tasi xorijiy xalqaro konferensiya materiallari to'plamida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsion tadqiqotning asosiy matni 145 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot metodlari keltirilgan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, olingan natijalarning

ishonchliligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirishni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlangan. Unda nazariy va metodologik asoslar, amaliy sotsiologik tadqiqotlarga oid yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirishning nazariy-metodologik bazasi, tashkiliy tamoyillarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida sotsiologiya mustaqil ilmiy yo'nalish bo'lib shakllanishiga imkon beruvchi ilmiy-amaliy izlanishlar amalga oshirilgani tahlil qilingan.

Jamiyatning ijtimoiy jarayonlarini maxsus usullar orqali o'rganishni asoslovchi nuqtayi nazar Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiylar asarlarida jamoatchilik fikrini o'rganishning turli usullari va jamiyat hamda davlat boshqaruvida aholining fikrini inobatga olish orqali samarali boshqaruvga erishish imkoniyatlarini beruvchi ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

G'arbda esa XIX asrga kelib aholi turli katlamlarining turmush tarzi, maishiy sharoitlari to'g'risida ma'lumotlarni yig'ishda ilmiy usullardan foydalana boshlangan. XIX-XX asrlarda yashab o'tgan Buyuk Britaniyalik sotsiolog Charlz But¹² aholining kam ta'minlangan qatlami haqida ma'lumotlarni yig'ishning ilmiy usullarini qo'llaydi, ushbu izlanishlar uning Vatani va AQSHda katta qiziqish uyg'otgan. Mazkur sotsiologik tadqiqotlar asosida davlat siyosatiga tuzatishlar kiritgan. S.Tayler, M.Blumer, R.Tomlinson¹³ tadqiqotlari asosida ijtimoiy muammolarni yechishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishning nazariy asoslarini yaratishda amaliy sotsiologik tadqiqotlar imkoniyatlari haqida tasavvur shakllangan.

Sotsiologik tadqiqotlar rivojlanishini to'rt bosqichga, ya'ni birinchi bosqich, sotsiologiya fan sifatida shakllanishidan birinchi jahon urushigacha – 1850-1920-yillar, ikkinchi bosqich ilmiy, obyektiv sotsiologiya va amaliy sotsiologiya o'rtasidagi nomutanosiblik davri – 1920-1940-yillar, ya'ni ikkinchi jahon urushidan qashshoqlikka qarshi kurashgacha bo'lgan davr, uchinchi bosqich davri – 1940-1980-yillarda moliyalashtirilgan tadqiqotlarning o'sishi davri, to'rtinchi bosqich – mas'uliyatlilik davrida yana-da mustaqil bo'lgan amaliy sotsiologiya alohida tarmoq sifatida shakllanishi 1980-2005-yillarni o'z ichiga olgani tahlil qilingan¹⁴.

Bizning fikrimizcha, amaliy sotsiologik tadqiqotlar klassik va zamonaviy sotsiolog olimlar talqinida tahlil qilingan bo'lsada, amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligiga qaratilgan mexanizmlar yaratilmaganligi, tadqiqotlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar haqida yetarli fikrlar mavjud emasligini

¹² Charles Booth «Life and Labour of the People in London» // Journal of the Royal Statistical Society, 1893. Decemder. Vol. 56. No. 4. – P. 557-593.

¹³ Taylor C. The social survey, its history and methods. Columbia. – Missouri: University of Missouri, 1919. – P. 51-52; Bulmer M. The Chicago Sociology: Institutionalisation, diversity and the rise. Philadelphia. The Harper Press, 1916. – P. I; Tomlinson R. Sociological concepts and research: Acquisition, analysis and interpretation of social information. – New York: Random House, 1967. – P. 3-4.

¹⁴ Сивак Е.В. История оценочных исследований в образовании в США: аналитический обзор // Социология: методология, методы, математическое моделирование. – № 33. – М.: Наука, 2011. – С. 112-135.

ko'rish mumkin. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilishda «amaliy sotsiologiya» tushunchasi uch turli nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, amaliy sotsiologik tadqiqotlarning tarixiy rivojlanishi va tadqiqotlar samaradorligining institutsional transformatsiyasi, jumladan, sotsiologlar an'anaviy foydalanilgan ba'zi professional rollarning, ya'ni analitik, ma'lumot yig'uvchi va kodlashtiruvchi kabilarning bugungi kunda mavjud bo'lgan sotsiologik amaliyot imkoniyatlarining umumiy sharhi berilgan. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar jamiyat rivojlanishiga har qanday sun'iy aralashish shakllariga qarshi turgan, bu jarayonda sotsiologik tadqiqotlar jarayonida nafaqat buyurtmachilar, balki boshqa shaxslarning aralashauvidan mustaqil bo'lishi lozimligi nazariy asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **«O'zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar holatining tahlili»** deb nomlangan ikkinchi bobida amaliy sotsiologik tadqiqotlarni rivojlantirishda sotsiologiyaning ijtimoiy obyektlarini o'rganuvchi fan sifatida xorijiy universitetlar, jumladan, Chikago universiteti (AQSH), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), M.S.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida (Rossiya) gumanitar fanlar yo'nalishida tutgan o'rni va mavqeyi darajasi ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmlaridagi mavjud muammolar va ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilingan, amaliy sotsiologik tadqiqotlarning hozirgi holati, ijtimoiy boshqaruv amaliyotidagi o'rni haqida turli fikrlar ko'rib chiqilgan va qiyoslangan.

Ushbu bobda amaliy sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirishda obyektning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, miqdoriy yoki sifatiy sotsiologik tadqiqotlarni qo'llash usuli ham atroflicha yoritilgan.

Jumladan, miqdoriy tadqiqotlarga asoslangan so'rov, miqdoriy ko'rsatkichlar va statistikaga asoslangan sotsiologik tadqiqotlar guruhiga daromadlar mutanosibligi, iqtisodiy o'sish, demografik o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar o'zgarishlaridagi tadqiqotlarda qo'llanilishi afzalligini nazariy asoslangan bo'lsa, sifatiy tadqiqotlar, ijtimoiy evolyutsion o'zgarish, madaniy o'zgarishlar, an'ana va qadriyatlar transformatsiyasi, intellektual o'sish, biologik va fiziologik o'zgarish hamda hayot mazmunini anglashni tadqiq etish afzalligi ilmiy asoslangan.

Ko'pgina tadqiqotlarda, asosan, miqdoriy tadqiqot metodlarini qo'llash afzal ko'riladi. Biroq har bir usul o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega bo'lganligi kabi, ushbu usullarni birlashtirilgan holda foydalanish dalillar uchun samarali usul bo'lishi mumkin. Ammo mazkur farqlar tadqiqotlar uchun shaxsiy ma'lumotlarni to'plashga to'g'ri kelgan vaqtdagina muhim hisoblanmaydi. Amaliy tadqiqotlar uchun ikkilamchi manbalarga tayanganimizda ham u haqda bilish zarur. Demak, olingan tadqiqot ma'lumotlarini baholashda turli usullarning kuchli va zaif tomonlariga e'tibor berish lozim.

Sotsiologik tadqiqotlar samaradorligida aholi o'rtasida sotsiologik madaniyatni yuksaltirish ham muhim o'rin egallaydi. Ya'ni aholi sotsiologik tadqiqotlar, ularning maqsadlarini to'g'ri anglashi lozim. Yuzaki axborot berish

uchun emas, balki jamiyat muammolariga o'z munosabatini bildirish orqali baho bera olishi muhim. Bu jarayonda aholi o'rtasida sotsiologik madaniyatni shakllantirish asosiy omil hisoblanadi. Sotsiologik madaniyat shundan iboratki, shaxs o'z maqsadiga erishishda nafaqat o'zining, balki atrofidagi insonlarning manfaatini ham inobatga olishi lozim. Amaliy sotsiologik tadqiqotlarni ma'muriy-buyruqbozlik yoki byurokratik tizimlardan xoli bo'lishi uning samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. 2020 yilning may-sentabr oylarida turli tadqiqot markazlarida intervyuyerlik faoliyatini olib boruvchi intervyuyerlar orasida «narrativ intervyu» usulida tadqiqot o'tkazildi. Ushbu tadqiqotda intervyuyerlar (so'rov o'tkazuvchilar) taklif qilindi, ularning kasbiy faoliyatlari bilan birga, ma'lumotlar yig'ishda o'ziga xos jihatlar haqida fikrlarini bilishga harakat qilindi.

12 nafar ixtiyoriy qatnashgan intervyuyerlar tomonidan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda umuman yo'l qo'yish mumkin bo'lmagan xatoliklarni aniqlashga muvassar bo'lindi. Ushbu xatoliklar tadqiqot natijalarining buyurtmachi tashkilot uchun samara bermasligining sabablaridan biri hisoblanib, birinchi navbatda, intervyuyerlar (tadqiqotchi, tadqiqotlarda ma'lumot to'plovchi) uchun, sotsiolog va tadqiqotchilar uchun axloqiy qoidalar ishlab chiqilishi zarurat hisoblanmoqda. Yo'l qo'yilayotgan xatolar kasbiy kompetensiya bilan bog'liq bo'lib, tadqiqotchi, intervyuyer kasbiy mahoratga ega emasligi, tadqiqotchi madaniyati ham shakllanmaganligi bilan asoslanmoqda. Undan tashqari, joylardagi rahbarlarning, boshqaruv xodimlarining sotsiologik tadqiqotlar haqida xabardorlik darajasining pastligi, amaliy sotsiologik tadqiqotlarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotga ega emasliklari tadqiqotlar borasida muammolarni keltirib chiqarib, o'z navbatida, samaradorligiga ta'sir qilishi tahlil qilingan.

Sotsiologik tadqiqotlar faqat statistik ma'lumotga ega bo'lish uchun emas, balki jamiyat va davlatning rivojlanish istiqbollarini belgilashni aniq faktlar bilan asosladik. Hozirgi globallashuv sharoitida sotsiologik tadqiqotlarga asoslanib ishlashni tashkil etish, tadqiqotlar amaliyotining samaradorligini yana-da oshirishga ehtiyoj sezdirmoqda. Sotsiologik tadqiqotlar reallikka asoslanishi, pozitivlikka yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Tadqiqotlarning saviyasini, reprezentativlik (ishonchlilik) darajasini oshirishda sotsiologlar, istiqbolda «O'zbekiston Respublikasining sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi qonuni va «Sotsiologning kasbiy etika kodeksi»ni ishlab chiqilishi lozimligi ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmlarining empirik tahlili»** deb nomlangan. Mazkur bobda O'zbekistonda sotsiologik tadqiqotlar faoliyatini olib boruvchi markazlarning ko'p yillik faoliyatida empirik sotsiologik tadqiqotlar metod va metodologiyasining shakllanish bosqichlari tizimli hamda qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, biz 2021-yil fevral-aprel oylarida ikki bosqichli ekspert so'rovi o'tkazidik.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan 23 ta amaliy sotsiologik tadqiqot tashkilotlaridan ekspertlar tanlab olinib, amaliy sotsiologik tadqiqot amaliyoti va

uning samaradorligini oshirish, sotsiologik tadqiqotlar samaradorligiga ta'sir etuvchi turli omillarni aniqlash bo'yicha ekspertlar fikri o'rganildi. Ikkinchi bosqich 2022-yilning sentabr-oktabr oylarida «Qor uyumi» usulida bevosita ekspertlar orqali buyurtmachi tashkilotlar, mamlakatimizdagi xorijiy va davlat tashkilotlaridan tashkil topgan bilvosita ekspertlar tanlab olindi (Bilvosita ekspertlar amaliy tadqiqotlarga buyurtma beruvchi tashkilotlar ekspertlari hisoblanadi). Tanlab olingan ekspertlar orasida «O'zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar: fikrlar, muammolar va yechimlar» mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

Biz ekspert baholash metodi orqali muammoni tahlil qilishda ilk bor proksi usulini qo'lladik. Proksi usuli orqali bevosita ekspertlar fikrini o'rganishda muammoni yana-da kengroq ochib berishga erishilgan. Mamlakatimizda sotsiologik tadqiqotlar faoliyati bilan bevosita shug'ullanuvchi 23 ta tashkilotdan 23 nafari asosiy ekspertlar bo'lsa, 27 nafari proksi ekspertlar qatnashgan. Bevosita ekspertlar mamlakatimizda amaliy sotsiologik tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi turli mutaxassislar hisoblanib, 18 %ini sotsiolog mutaxassislar, 28 %ini iqtisodchilar, 14 %ini matematiklar va axborot texnologiyalari mutaxassislari, 14 %ni filolog va tarjimonlar, 8 %ini geograflar, 6 %ini tarixchilar, 4 %ini siyosatshunoslar, 4 %ini faylasuflar va 4 %ini jurnalistlar tashkil qilmoqda. Tadqiqot bugungi kunda amaliy sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazishda, tashkilotlarda sotsiolog mutaxassis kadrlar bir muncha kamligini ko'rsatmoqda. Ya'ni tadqiqot amaliyoti bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda sotsiologik tadqiqotlar amaliyotini, yangi zamonaviy tadqiqot usullarini to'liq o'zlashtira olgan amaliyotchi sotsiologlar yetishmasligi ekspertlar fikri asosida ko'rsatilgan.

1-jadval


№	Ekspertlarning lavozimlari	Soni	% hisobida
1.	Tashkilot rahbari	14	28 %
2.	Tadqiqotlarini tashkillashtirish bo'yicha rahbar o'rinbosari	12	24 %
3.	Dala tadqiqotlarni tashkillashtirish bo'yicha bo'lim boshlig'i	8	16 %
4.	Tahliliy hisobot tayyorlash bo'yicha rahbar o'rinbosari	8	16 %
5.	Tadqiqotning el.texnologik jarayonlarini tashkillashtiruvchi	8	16 %
Jami		50	100 %

1-jadval. Bevosita ekspertlar demografik anketasi.

Sotsiologik tadqiqotlar faoliyatini olib boruvchi markazlarda egallab turgan lavozimlari ularning mutaxassislik ma'lumotiga to'g'ri kelishi o'rganilganda, 50 nafar ekspertdan rahbar lavozimida 4 nafar sotsiolog, 6 nafar iqtisodchi, 3 nafar filolog va tarjimon, 1 nafar geograf faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ekspertlarning 9 nafari sotsiolog mutaxassisi bo'lib, ulardan 4 nafari rahbar lavozimidagi ekspertlar, 1 nafari 25 yil, 3 nafari 11-24 yildan buyon sotsiologik tadqiqotlar olib borishda tashkilot rahbari sifatida faoliyat olib borishmoqda. Tadqiqot markazlarining faoliyati tahlili dissertatsiyaning ilova qismining 4-sonida keltirilgan.

Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazuvchi markazlarida turli lavozimlarda faoliyat yuritayotgan 50 nafar ekspertdan 9 nafari sotsiolog, 41 nafari esa boshqa soha mutaxassislari. Bu ham, o'z navbatida, amaliyotchi sotsiologlar yetishmasligidan dalolat bermoqda.

Bevosita ekspertlar, amaliy sotsiologik tadqiqotlarga buyurtmalar ko'p bo'lishi va tadqiqotlarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun ma'muriy muammolar mavjudligi sabab tashkilotlarda 52 % marketing tadqiqotlari, 48 % sotsiologik tadqiqotlar buyurtmalari bajarilishini ma'lum qilishgan. Shuningdek, ekspertlar tadqiqot markazlarida marketing tadqiqotlari ham olib borilishi, tashkilot moliyaviy balansini ushlab turish maqsadida, sotsiologik tadqiqotlarga qaraganda, ko'proq marketing tadqiqotlari uchun buyurtmalar olish maqsadga muvofiq ekanligi aytib o'tilgan.




1-rasm. Tadqiqotlarda foydalaniladigan metodlar.

